O‘ZBEK TILI PEDAGOGIKA TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI

E’tibor Baxtiyorovna YAXSHIYEVA
filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
etiboryaxshiyeva@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tili pedagogik terminologiyasining tayanch birliklari, ularning leksik xususiyatlari va leksikografik talqini lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Pedagogik terminologik tizimning yadro birligi hisoblangan *pedagogika* termini hamda uning atrofida shakllangan *ta’lim, tarbiya, didaktika* kabi tayanch terminlarning semantik tarkibi, terminologik belgilari va o‘zaro tizimli munosabatlari tahlil qilingan. Mazkur terminlarning umumfilologik va ensiklopedik lug‘atlardagi izohlari qiyosiy o‘rganilib, ularning ma’no taraqqiyoti, ko‘p ma’nolilik xususiyatlari hamda terminologik mohiyati yoritilgan.

Tayanch so’zlar: pedagogik terminologiya, terminosistema, yadro termin, tayanch termin, leksik-semantik xususiyat, leksikografik talqin, terminologik ma’no, sof termin, nisbiy termin, polisemiya, jins–tur munosabati, ta’lim, tarbiya, didaktika.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Эътибор Бахтиёровна ЯХШИЕВА
доктор философии по (PhD) филологическим наукам
Университет журналистики и
массовых коммуникаций Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье с лингвистической точки зрения исследованы базовые единицы педагогической терминологии узбекского языка, их лексические особенности и лексикографическая интерпретация. Проанализированы семантический состав, терминологические признаки и системные взаимосвязи термина педагогика, являющегося ядерной единицей педагогической терминологической системы, и сформировавшихся вокруг него базовых терминов, таких как образование, воспитание, дидактика. Сравнительно изучены толкования этих терминов в общефилологических и энциклопедических словарях, освещены их семантическое развитие, особенности многозначности и терминологическая сущность.

Ключевые слова: педагогическая терминология, терминосистема, ядерный термин, опорный термин, лексико-семантическая особенность, лексикографическая интерпретация, терминологическое значение, чистый термин, относительный термин, полисемия, соотношение пола и вида, образование, воспитание, дидактика.

O‘zbek tili pedagogik terminologiyasining tadqiqi nafaqat pedagogik soha doirasi masalalari, balki barcha soha kasbiy ta’limi nazariy-amaliy masalalari yechimiga ham xizmat qiladi. Chunki barcha ilm-fan, texnika, sohalar o‘z kasbiy ta’limi bilan pedagogika sohasi va uning terminologiyasi bilan uzviy bog‘liqlik kasb etadi.

O‘zbek tili pedagogik terminosistemasining yadro termini, dominant birligi bu *pedagogika*dir. Ushbu yadro termin atrofida *“ta’lim”, “tarbiya”, “didaktika”, “metodika”* terminlari mazkur terminosistemaning tayanch terminlari sifatida o‘rin egallaydi, ularning semantik tarkibidagi ma’no va muhim terminologik belgilarni lingvistik va ensiklopedik lug‘atlar asosida tavsiflashga harakat qilamiz.

“PEDAGOGIKA [*yun.* paidagogike < pais, paidos – bola + ago – yetaklab boraman, tarbiya qilaman] 1 Tarbiya, ta’lim hamda ma’lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar majmui. 2 Ayni shu soha (mutaxassislik) bo‘yicha o‘quv fani”.[1; 702].

Ushbu terminografik tavsif umumfilologik lug‘atdan o‘rin olgan, ko‘rinadiki, mazkur terminologik birlikka tegishli ikki xil ma’no tavsiflangan. Uning “ta’lim, tarbiya bilan shug‘ullanuvchi fan nomi” degan ma’nosi birinchi ma’no sifatida qayd qilingan. Terminning ikkinchi ma’nosi sifatida “sohaning o‘quv fani nomi” ko‘rsatilgan. Ma’lumki, terminlarning polisemantikligi salbiy holat sifatida baholansa-da, ko‘p ma’noli terminlarning deyarli barcha terminologik tizimlarda qayd qilinishi kuzatiladi, jumladan, mazkur ko‘p ma’nolilik pedagogik terminologiyaning yadro terminida ham mavjudligini leksikografiya manbalari ham tasdiqlaydi: “PEDAGOGIK 1 Pedagogga oid, xos. *Pedagogik jamoa. Pedagogik faoliyat. P edagogik mahorat. Pedagogik amaliyot.* 2 Pedagogikaga oid. *Pedagogik asarlar. Pedagogik bilimlar. Pedagogik jarayon”* [1;702]. Ushbu o‘rinda birinchi ma’no mohiyatida “shaxsga oidlik”, ikkinchi ma’no tarkibida esa “sohaga oidlik” tushunchasi ustuvor, hal qiluvchi omil sanaladi, bu ikki ma’noning bitta birlikda birlashuvini ta’minlovchi asos, ya’ni ma’no – pedagogika (ta’lim-tarbiya)dir. Mazkur ta’lim-tarbiyaga oid tushuncha

o‘quv va tarbiya jarayoniga bog‘liqlik kasb etuvchi barcha pedagogik terminlar ma’no tarkibida u yoki bu darajada ishtirok etadi hamda pedagogik terminlar tizimiga aloqadorligini belgilovchi asosiy omil sifatida qayd qilinadi. Ushbu o‘rinda mazkur terminning ensiklopedik (qomusiy) lug‘atdagi izohiga diqqat qaratamiz: “PEDAGOGIKA (yunoncha *paydagogos* – bola yetaklayman) – tarbiya, ta’lim hamda ma’lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o‘quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o‘rganiladigan o‘quv predmeti ham pedagogika deb yuritiladi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug‘ullangan. Zamonaviy pedagogika bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o‘quv-tarbiyaviy, madaniy-oqartuv hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi bilan shug‘ullanishni ko‘zda tutadi. O‘zbekistonda hozir pedagogikaga barkamol shaxs ma’naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashilmoqda” [2; 295]. Qayd qilinganlardan ma’lum bo‘ladiki, tushunchaga berilgan ensiklopedik izoh tarkibida o‘qitish va tarbiya berishning nazariy-amaliy masala hamda vazifalari bilan mashg‘ul bo‘lish ma’nosi yetakchi belgi sifatida yuzaga chiqqan. Ana shu ma’no, lingvistik belgi tahlil qilinayotgan terminka xos lisoniy mohiyat sanaladi. Soha va uning leksikasi rivoji davomida mazkur terminning semantik tabiatida “pedagogika institutlarida o‘qitiladigan sohaga oid o‘quv predmeti” degan qo‘shimcha ma’no ham tarkib topgan. Ushbu termin shakllanishining dastlabki bosqichida “bola tarbiyasining ilmiy-nazariy masalalari bilan shug‘ullanadigan soha” degan ma’noga egalik qilgan bo‘lsa, soha terminologiyasining keyingi davrlar oralig‘ida “bolalar bilan birga katta yoshlilarning ham o‘quv-tarbiyaviy, madaniy-oqartuv hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi masalalari bilan mashg‘ul bo‘luvchi soha” tarzidagi terminologik ma’nosi barqarorlashganligini ham alohida qayd qilish zarur.

O‘zbek pedagogikasining nisbatan barcha tushuncha va terminologiyasini o‘zida aks ettirgan ensiklopedik lug‘atdagi *pedagogika* terminining izohiga ham e’tibor qaratib o‘tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: “PEDAGOGIKA (yun. paidagogike – pais, paidos – bola + ago – yetaklab boraman, tarbiya qilaman) 1)

ta’lim-tarbiyaning nazariy asoslarini tadqiq etuvchi fan; 2) yoshlarga ta’lim-tarbiya hamda ma’lumot berish, ularni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi o‘quv fani; 3) P. oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan turkum fanlarning umumiy nomi” [3; 67]. Qayd qilingan soha terminining leksikografik tavsifiga asoslanib aytish mumkinki, mazkur terminning semantik tarkibida uchta terminologik ma’no mujassamlashgani qayd qilib o‘tilgan. Bizningcha, terminning ajratilgan ikkinchi ma’nosi tarkibidagi *yoshlar* so‘zi o‘rniga *shaxs* so‘zini ishlatish maqsadga muvofiq, chunki bugungi jamiyat ongida *pedagogika* deganda faqat kichik yoshlilar ta’lim-tarbiyasi masalasigina emas, umuman shaxs ta’limi, tarbiyasi degan mazmun-mohiyat barqarorlashib ulgurgan.

“Yigirmanchi asr o‘rtalariga kelib obyektiv borliq to‘g‘risidagi ma’lumotlar shu darajada ortib ketdiki, asr boshida go‘yoki, shakllanib bitgan, deb hisoblangan fan tarmoqlari taraqqiy etishi natijasida ularning turlari qariyb o‘n baravar ko‘paydi. O‘rganish obyekti va tadqiqot usullari jihatidan, ularning fanlararo integrativ turlari vujudga kela boshladi. Bilim hajmi, turi va sifati ortib boraverdi” [4; 112]. Natijada sohalar terminologiyasi soni ortib bordi, terminologik tizim tarkibida yangi-yangi tushuncha va jarayonlarni, narsa-hodisalarni anglatuvchi terminologik birliklarning miqdoran oshib borishi sodir bo‘ldi, terminologik leksikaning miqdor va sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Qayd qilinayotgan mazkur holat ta’lim-tarbiya tizimi sohasiga ham tegishli sanaladi.

Pedagogikaning asosiy tushunchalarini ifodalovchi *tarbiya, ta’lim* terminlari ham pedagogik terminologiyaning tayanch, yetakchi terminlari hisoblanadi. Ta’kidlanganidek, terminlarning terminologik tabiati, belgi-xususiyatlari ularning leksikografik talqinida yanada yorqin namoyon bo‘ladi. Ularning umumiy filologik lug‘atdagi tavsiflanishi quyidagicha berilgan: “TA’LIM [*a.* – o‘rgatish, o‘qitish, ilm berish; mashq qildirish; ma’lumot] 1 Bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. 2 Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanadigan, olinadigan ma’lumot va ko‘nikmalar majmuyi; bilim. 3 Tarbiya, odob-axloq. 4 *s.t.* Ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq, o‘rgatuv” [1; 173]. “TARBIYA [*a.* –

rivojlantirish; parvarish qilish, o‘stirish; o‘rgatish; ilm berish] 1 Ta’lim, axloq-odob va shu kabilarni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish. 2 Insonda ish-hunar, odob-axloq va shu kabilarni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o‘zi. 3 Ma’lum tartib, usul asosida qarab, ishlov berib o‘stirmoq; parvarishlamoq (o‘simlik va hayvonlar haqida)” [1; 105–106] Yuqorida keltirilganlardan ma’lum bo‘ladiki, *ta’lim* va *tarbiya* terminlari o‘zbek tili pedagogik terminologiyasining asosiy terminlari sifatida yuzlab terminologik birliklarni o‘z atrofida birlashtirib, ularni pedagogik terminlar tizimiga bog‘lab turadi. Mazkur leksikografik izohlar umumfilologik xarakter kasb etadi, shunga ko‘ra, *ta’lim* so‘zining ikkinchi ma’nosi, *tarbiya* so‘zining esa birinchi ma’nosi terminologik tabiatlidir. Ushbu terminlarning izohli lug‘atimizdagi ajratib berilgan ma’nolari izohidan oldin ushbu ma’nolar pedagogika sohasiga aloqadorlik kasb etishiga ishora qiluvchi maxsus belgi, ya’ni *ped.* (pedagogikaga oid) belgisining qo‘yilishini tavsiya qilamiz. Chunki diqqat markazimizdagi har ikki termin nisbiy termin maqomida bo‘lib, ta’kidlanayotgan terminologik ma’nolarigina ularni o‘zbek tili pedagogik terminologiyasiga mansubligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu birliklarning semantik tarkibida umumiste’mol ma’nolarning ham mavjudligi ularni umumleksik birlik sifatida ham belgilashga asos bo‘la oladi. Shu bois bu kabi leksik birliklarni nisbiy termin deb atash mumkin, ular umumiste’mol va maxsus leksikada ham faol sanaladi. Kuzatuvimizdagi har ikkala leksik birlik pedagogika terminologiyasida asosiy va tayanch tushunchalarning ifodalovchisi sifatida alohida o‘rin tutadi. Ayni holat esa ularni pedagogikaning tayanch terminlari sifatida qayd qilinishini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, ushbu nisbiy terminlarning ma’nosini tavsiflashda umumleksik hamda terminologik belgilarini nazardan chetda qoldirmasdan, leksikografik tavsifida aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbek tili leksikasining faol birliklaridan bo‘lgan *ta’lim, tarbiya* so‘zlari pedagogikaga oid terminlar tizimida ham terminlik xususiyatini yorqin namoyon

qilib keladigan birliklardan sanaladi. Bir tomondan umumleksik birlik, boshqa yana bir tomondan maxsus leksik birlik – termin sifatida qaraladigan mazkur lug‘aviy birliklarning o‘rni va ishtiroki pedagogik terminologiya tarkibida yuqori darajada deyish mumkin.

Ta’lim tushunchasi maxsus ensiklopedik lug‘atda o‘zining mazmun-mohiyatini to‘la topgan. Jumladan, “TA’LIM – shaxsning ma’rifatlilik va tarbiyalanganlik darajasini orttirish orqali uning rivojlanishini ta’minlash maqsadida o‘rgatuvchi bilan o‘rganuvchilar o‘zaro birgalikda amalga oshiradigan o‘quv faoliyati” [2; 384]. Ko‘rinadiki, *ta’lim* sohaviy aspektda o‘zining tub mazmuniga ega bo‘la olgan. Ta’lim tushunchasining asosiy mazmuni “o‘rgatuvchi va o‘rganuvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi o‘quv faoliyati” degan semada yaqqol namoyon bo‘ladi. Ta’lim so‘zi bilan birga tarbiya so‘zi ham soha terminologiyasida faol terminlardan biridir, ushbu terminning ensiklopedik lug‘atdagi tavsifi quyidagicha beriladi: (3) “TARBIYA – har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon” [2; 336]. Murakkab mazmunli ushbu tushunchalarning ensiklopedik tavsifi umumfilologik lug‘at izohi uchun ham bosh omil sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Ayni holat *ta’lim, tarbiya* kabi nisbiy terminlarning umumfilologik lug‘atlardagi tavsiflarining mukammallashtirilishini taqozo qiladi.

Pedagogika sohasining asosiy, markaziy tushunchalaridan yana birini ifodalovchi termin bu *didaktika*dir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu termin quyidagicha izohlangan: “DIDAKTIKA (yunoncha *didaktikos* – o‘rgatuvchi, *didasko* – o‘rganuvchi) – pedagogikaning ta’lim nazariyasi tarmog‘i bilan shug‘ullanuvchi ajralmas qismi. U ta’lim jarayoni va mohiyati, qonuniyatlari, ta’limning metod va vositalari, ta’lim jarayonini takomillashtirish kabi kompleks masalalar bilan shug‘ullanadi. Didaktikaning predmeti – ta’lim jarayoni va uning qonuniyatlaridir” [2; 199]. Ushbu termin mohiyati ham bevosita *ta’lim* tushunchasi asosida belgilanadi. *Ta’lim, tarbiya* nisbiy terminlaridan farqli ravishda *didaktika* birligi sof termin hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, umuman o‘zbek tili pedagogik terminologiyasining tayanch birliklarini leksik va leksikografik jihatdan tadqiq etish ularning terminologik maqomini belgilash, semantik xususiyatlarini aniqlashtirish hamda soha terminologiyasining ichki tizimini yoritish imkonini beradi. Pedagogik terminlarning mazmun-mohiyatini ilmiy asosda tavsiflash, ularning umumleksik va maxsus leksikadagi o‘rnini farqlash, shuningdek, leksikografik izohlarini takomillashtirish o‘zbek terminologiyasi taraqqiyoti uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.J.3. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022.
2. Ўзбек педагогик энциклопедик сўзлиги. – Тошкент: Chashma print, 2014.
3. Педагогика: Энциклопедия. Ж.III.
4. Зиёмуҳаммедов Б. Педагогика. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2006.
5. Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси: филология фанлари номзодини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 1994.